



IDEOLOGY AND NATIONAL IDEOLOGY: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF HISTORICAL DEVELOPMENT AND SOCIAL ROLE

Barno Matchonova

Independent Researcher

Institute of Social and Spiritual Studies

Email: matchanovabarno-227@com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Idea, ideology, national ideology, ideological threat, ideological attack, globalization, national values, social consciousness, spiritual security, social development.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the concepts of ideology and national ideology, their essence, formation history, and role in societal life. It examines the impact of ideology on social consciousness in the context of globalization, highlighting both its constructive and destructive features. The study also explores political, religious, economic, and cultural types of ideology, emphasizing the importance of national ideology in uniting the population, preserving national identity, and educating younger generations in the spirit of patriotism. Modern ideological threats and ideological attacks, their forms and methods, are analyzed, demonstrating the social functions of ideology and national ideology in ensuring societal stability and national security.

MAFKURA VA MILLIY MAFKURA: TARIXIY RIVOJLANISH VA IJTIMOYIY ROLNING FALSAFIY TAHLILI

Barno Matchonova

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

mustaqil tadqiqotchisi

matchanovabarno-227@com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: G'oya Mafkura, milliy mafkura, mafkuraviy tahdid, mafkuraviy xuruj, globallashuv, milliy qadriyatlar,

Annotatsiya: Maqolada mafkura va milliy mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyati, shakllanish tarixi hamda jamiyat hayotidagi o'рни atroflicha tahlil qilinib,

ijtimoiy ong, ma'naviy xavfsizlik, jamiyat taraqqiyoti.

globalashuv sharoitida mafkuraning ijtimoiy onnga ta'siri, uning bunyodkor va vayronkor xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy mafkura turlari yoritilib, milliy mafkuraning xalqni birlashtirish, milliy o'zlikni saqlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati asoslangan. Zamonaviy mafkuraviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlar, ularning shakl va usullari tahlil qilinib, mafkura va milliy mafkuraning jamiyat barqarorligi hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi ijtimoiy funksiyalari yoritilgan.

ИДЕОЛОГИЯ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕОЛОГИЯ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОЦИАЛЬНОЙ РОЛИ

Барно Матчонова

Независимый исследователь

Институт социально-духовных исследований

matchanovabarno-227@com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идея, идеология, национальная идеология, идеологическая угроза, идеологическая атака, глобализация, национальные ценности, общественное сознание, духовная безопасность, развитие общества.

Аннотация: В статье всесторонне анализируются сущность и содержание понятий идеологии и национальной идеологии, история их формирования, а также их роль в жизни общества. В условиях глобализации раскрывается влияние идеологии на общественное сознание, ее созидательные и разрушительные свойства. Освещаются политические, религиозные, экономические и культурные виды идеологий, обосновывается значение национальной идеологии в консолидации народа, сохранении национальной идентичности и воспитании молодого поколения в духе патриотизма. Анализируются современные идеологические угрозы и идеологические атаки, их формы и методы, а также раскрываются социальные функции идеологии и национальной идеологии в обеспечении стабильности общества и национальной безопасности.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida jamiyatlar turli mafkuraviy ta'sirlar ostida yashamoqda. Mafkura insonlar ongi va faoliyatiga, davlat va millat rivojiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi asosiy g'oyaviy omil hisoblanadi [1]. Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat yoki davlatning manfaatlari, orzu va maqsadlarini ifodalovchi g'oyalar tizimini tashkil etadi [2]. Shuningdek, u xalqni umumiy maqsadlar atrofida birlashtirish, ma'naviy immunitetni shakllantirish va turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda mustaqillikni ta'minlash va demokratik jamiyatni barpo etish jarayonida milliy mafkura ahamiyati yanada ortib bormoqda. Milliy mafkura tarixiy tajriba, madaniy meros va milliy qadriyatlar asosida shakllanadi hamda kelajak avlodni vatanparvarlik va ma'naviylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

"Mafkura" tushunchasi XVIII asrda Yevropada, ayniqsa Fransiyada shakllanib, Antuan Destyut de Trasi ilk bor "ideologiya" atamasini inson tafakkurini o'rganuvchi fan sifatida talqin qilgan [3]. Keyinchalik bu tushuncha siyosiy va ijtimoiy nazariya darajasiga ko'tarilib, jamiyat hayotini tartibga soluvchi g'oyalar tizimi sifatida qo'llanila boshladi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur bo'lib, u orqali ijtimoiy guruhlar va davlatlar o'z maqsadlarini amalga oshiradi. Mafkura insonlarning dunyoqarashini shakllantirib, ularni strategik maqsadlarga yo'naltirishi mumkin.

Mafkuraning bunyodkor xususiyatlari: ozodlik, mustaqillik, tinchlik va hamkorlik g'oyalariga asoslangan holda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish kabilar kiradi. Endi, mafkuraning vayronkor xususiyatlariga esa ekstremizm, tajovuzkorlik va aqidaparastlik asosida jamiyat barqarorligiga putur yetkazish singari xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Mafkura turlari turli sohalardagi qarashlar va g'oyalar to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Xususan:

Siyosiy mafkura – davlat boshqaruvi va siyosiy munosabatlar bilan bog'liq (liberalizm, konservatizm, sotsializm, kommunizm, millatchilik) [4].

Diniy mafkura – muayyan din ta'limotlari va axloqiy qadriyatlarga tayanadi (islom, xristiyanlik, buddizm) [5].

Iqtisodiy mafkura – mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish va resurslarni taqsimlash masalalariga oid (kapitalizm, ijtimoiy, aralash iqtisodiy modellar) [6].

Madaniy mafkura – xalqning madaniy merosi, urf-odat va an'analariga asoslangan.

Ekologik mafkura – tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish g'oyalariga asoslangan.

Falsafiy mafkura – inson, jamiyat va borliq haqidagi umumiy fikrlar [7]. Bu turlar orqali jamiyatning ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy hayotini tartibga solish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy mafkura va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamda ahamiyatini chuqur va tizimli o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Milliy mafkura muayyan millatning tarixiy tajribasi, ko'p asrlik madaniy merosi, urf-odatlar, an'analari

va qadriyatlari asosida shakllanib, millatning o'zligini anglash va saqlab qolishda muhim g'oyaviy tayanch vazifasini bajaradi. U millatning mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda jamiyat a'zolarini umumiy maqsadlar atrofida birlashtirishga xizmat qiladi [8]. Milliy mafkura yosh avlodni vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim tarbiyaviy omil bo'lib, jamiyatda sog'lom dunyoqarashni shakllantiradi.

Shu bilan birga, u milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar – tinchlik, adolat, inson huquq va erkinliklari, bag'rikenglik va hamkorlik g'oyalari bilan uyg'unlashtirgan holda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu jarayon milliy o'zlikni saqlab qolgan holda jahon sivilizatsiyasiga integratsiyalashuvni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, milliy mafkura globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar va yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilib, davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil bo'lib qoladi. Shuningdek, milliy mafkura globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar va yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilib, davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil bo'lib qoladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkuraviy tahdid tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy tahdid bu ijtimoiy-siyosiy harakat yoki kuchlarning o'z manfaatlarini qo'rqitish, zo'ravonlik yoki aldov orqali boshqa jamiyatlarga singdirishga qaratilgan faoliyatidir. Bunday tahdidlar davlat, millat va xalq taqdiriga jiddiy xavf solib, jamiyat barqarorligi va milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin.

O'zbekistonda barpo etilayotgan insonparvar va demokratik jamiyat sharoitida siyosiy ekstremizm, diniy fundamentalizm, xalqaro terrorizm, millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va mahalliychilik kabi holatlar zamonaviy mafkuraviy tahdidlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tahdidlar jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytirish, milliy birlik va totuvlikka raxna solish hamda davlat taraqqiyotining izchil yo'nalishiga salbiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, ularga qarshi samarali mafkuraviy choralar ko'rishni taqozo etadi.

Mafkuraviy tahdidlarning amaliy ko'rinishlaridan biri mafkuraviy xurujlar hisoblanadi. Mafkuraviy xurujlar odatda ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar va turli axborot resurslari orqali amalga oshirilib, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchsizlikni kuchaytirish, ijtimoiy ongni chalg'itish hamda jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga qaratiladi.

Bunday xurujlar yashirin va tizimli tus olib, axborot manipulyatsiyasi, yolg'on ma'lumotlar tarqatish va provokatsion g'oyalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bilamizki, mafkuraviy xurujlarning asosiy maqsadi, xalq bilan davlat, jamiyat bilan hokimiyat o'rtasidagi ishonchni zaiflashtirish, milliy qadriyatlarni kamsitish hamda mamlakatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan nazorat ostiga olishdan iboratdir. Shu bois, bunday tahdidlarga qarshi kurashishda milliy mafkuraning mustahkamligi, aholi, ayniqsa yoshlarning mafkuraviy bilim va tafakkur darajasini oshirish, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkura va milliy mafkura jamiyat hayotida bir qator muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

Dunyoqarashni shakllantirish – insonlarda hayotga, jamiyatga va undagi jarayonlarga nisbatan muayyan qarashlar, qadriyatlar va prinsiplarni rivojlantiradi.

Birlashtiruvchilik – jamiyat a'zolarini umumiy g'oyalar, maqsadlar va qadriyatlar atrofida birlashtiradi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi;

Yo'naltiruvchi funksiya – jamiyat va davlat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini belgilashda asosiy g'oyaviy rahbarlik vazifasini bajaradi;

Tarbiyaviy funksiya – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalash, ularni jamiyat hayotiga mas'uliyat bilan jalb qilishda muhim omil hisoblanadi;

Himoya funksiyasi – milliy manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, jamiyat barqarorligini va milliy xavfsizlikni ta'minlashda xizmat qiladi. Bu funksiyalar orqali mafkura va milliy mafkura jamiyatning ma'naviy barqarorligi, ijtimoiy birdamligi va rivojlanish strategiyasida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, mafkura va milliy mafkura jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va taraqqiyotning asosiy g'oyaviy omillari hisoblanadi. Ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish har bir mustaqil davlat uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Milliy mafkura nafaqat tarixiy tajriba, madaniy meros va milliy qadriyatlarni saqlab qolish, balki yosh avlodni vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda ham muhim vosita vazifasini bajaradi.

Boisi, milliy mafkura jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida umumiy maqsadlar va strategik yo'nalishlar atrofida jamiyat a'zolarini birlashtiradi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi hamda ichki va tashqi tahdidlarga qarshi barqaror himoya qatlamini yaratadi. Bu jihat, ayniqsa, globallashtirish sharoitida yuzaga kelayotgan mafkuraviy xurujlar, siyosiy ekstremizm, diniy fundamentalizm, xalqaro terrorizm va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy mafkura orqali milliy manfaatlar umuminsodiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa jamiyatni nafaqat ichki barqarorlik, balki jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois, mafkura va milliy mafkura jamiyat hayotida nafaqat g'oyaviy-ijtimoiy yo'naltiruvchi, balki tarbiyaviy, himoya va strategik funksiyalarni bajaruvchi asosiy vosita sifatida qaralishi lozim.

Ularning ahamiyatini yanada kuchaytirish va saqlash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jamiyatdagi birlik va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, davlatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash har bir mustaqil davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy mafkura jamiyatning ma'naviy immunitetini oshirish, yoshlarni tanqidiy fikrlash va axborot madaniyati bilan qurollantirish orqali global tahdidlarga qarshi samarali vosita vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, mafkura va milliy mafkura jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim strategik resurs sifatida namoyon bo'lib, milliy taraqqiyot, barqarorlik va xavfsizlikning mustahkam poydevorini yaratadi. Shu bois, ularni chuqur o'rganish, tizimli rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish har bir mustaqil davlat uchun uzluksiz va ustuvor vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
3. Destutt de Tracy A. Éléments d'idéologie. – Paris, 1801.
4. Abdullayev A., Qosimov B. Mafkurashunoslik asoslari. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2016.
5. Saidov A.X. Diniy va madaniy mafkuralar. – Toshkent: Adolat, 2015.
6. Ergashev I., Quronov M. Milliy g'oya va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Akademiya, 2018.
7. Hasanov B. Globallashuv va mafkuraviy tahdidlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
8. Mamasharifov S. Siyosiy mafkuralar tarixi. – Toshkent: Universitet, 2014.